

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INGLIZ VA QORAQALPOQ TOPISHMOQLARIDA TABIAT KONSEPTLARINING METAFORIK MODELLASHUVI

Sagatova Zarima

Qoraqalpoq davlat universiteti, PhD, doktorant.

e-mail: zarima.1881@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-5222-953X>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq xalq topishmoqlarida tabiat metaforalari asosida shakllangan lingvokognitiv modellar qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda zoometaphora, fitometaphora hamda tabiiy obyektlar va hodisalar bilan bog'liq metaforik modellar tahlil qilinib, ularning denotatni yashirin ifodalashdagi funksional imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, topishmoqlarda tabiat metaforalari orqali inson tanasi, maishiy buyumlar, ijtimoiy hodisalar va abstrakt tushunchalarning konseptualizatsiya qilinishi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: lingvokognitiv tahlil, lingvomadaniyat, tabiat metaforasi, zoometaphora, fitometaphora, konseptual metafora, metaforik modellashirish, ikkilamchi nominatsiya, etnomadaniyat.

МЕТАФОРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ КОНЦЕПТОВ ПРИРОДЫ В АНГЛИЙСКИХ И КАРАКАЛПАКСКИХ ЗАГАДКАХ

Сagатова Зарима

Каракалпакский государственный университет, PhD, докторант.

Аннотация.

В данной статье в сопоставительном аспекте исследуются лингвокогнитивные модели, сформированные на основе природных метафор в английских и каракалпакских народных загадках. Анализируются метафорические модели, связанные с зоометафорой, фитометафорой, а также природными объектами и явлениями, раскрываются их функциональные возможности в имплицитном выражении денотата. Кроме того, рассматриваются особенности концептуализации частей человеческого тела, предметов быта, социальных явлений и абстрактных понятий посредством природных метафор в загадках.

Ключевые слова: лингвокогнитивный анализ, лингвокультурология, природная метафора, зоометафора, фитометафора, концептуальная метафора, метафорическое моделирование, вторичная номинация, этнокультура.

METAPHORICAL MODELING OF NATURE CONCEPTS IN ENGLISH AND KARAKALPAK RIDDLES

Sagatova Zarima

Karakalpak State University, PhD, Doctoral Student.

Abstract.

This article comparatively examines the linguacognitive models formed based on nature metaphors in English and Karakalpak folk riddles. Metaphorical models related to zoometaphors, phytometaphors, as well as natural objects and phenomena, are analyzed, revealing their functional capabilities in the implicit expression of denotation. Furthermore, the conceptualization of human body parts, household items, social phenomena, and abstract concepts through nature metaphors in riddles is examined.

Keywords: linguacognitive analysis, linguacultural studies, natural metaphor, zoometaphor, phytomeaphor, conceptual metaphor, metaphorical modeling, secondary nomination, ethnoculture.

Kirish. Inson ongida borliq atrof-muhit turli kategoriyalar orqali aks ettirilgan bo'lib, ular kuzatilayotgan voqelikni o'ziga xos tarzda tahlil va sintez qilish elementlarini tashkil etadi. Bu esa insonning individual idrokiga muvofiq tarzda shakllangan predmetga oid ma'no tizimining vujudga kelishiga olib keladi. Reseptor bu jarayonda predmetlarning sezgi orqali hosil bo'lgan tasvirlarini bevosita nomlamaydi, balki ong uchun ahamiyatli bo'lgan elementlarni aniqlaydi, aynan shu elementlar keyinchalik tasavvurning shakllanishi va doimiy faoliyatini ta'minlaydi [4:269].

Tilda inson tomonidan dunyo haqidagi bilimlar qanday sharoitlarda o'zlashtirilgani — xalqning tabiiy sharoitlari,

ijtimoiy tuzumi, tarixiy taqdiri, amaliy hayotiy tajribasi va hokazolar — cheksiz xilma-xillikda ifoda topadi [5:118].

Materiallar va Metodlar. Tadqiqot materiali ingliz va qoraqalpoq xalq topishmoqlari korpusi asosida shakllantirildi. Tadqiqot materiali ingliz va qoraqalpoq xalq topishmoqlaridan tanlab olingan namunalardan iborat bo'lib, ular qiyosiy-lingvokognitiv tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, semantik va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida topishmoqlarda ikkilamchi nominatsiya va tabiat metaforasi asosidagi topishmoqlar orqali hosil qilingan obrazlar aniqlanib, ularning semantik hamda lingvomadaniy funksiyalari tavsiflandi.

Natijalar va tahlillar. Ingliz tilida tabiat metaforasi asosidagi topishmoqlar guruhiga hayvonlar (zoometafora), o'simliklar (fitometafora) va boshqa tabiiy **obyektlar** kiradi.

Zoologik metafora ingliz topishmoqlarida eng ko'p uchraydigan metaforik model hisoblanadi. Bu turdagi topishmoqlarda hayvon obrazi inson yoki predmetlarga ko'chiriladi, natijada ular yanada jonli va ta'sirchan tasvirlanadi. Ayniqsa, metaforaning giperbolizatsiya funksiyasi muhim ahamiyatga ega: oddiy predmetlar hayvoniy obrazlar vositasida kattalashtiriladi, ularga kuch va salobat beriladi. Masalan, quyidagi topishmoqda tishlar "otlar" bilan qiyoslanadi:

"Thirty white horses on a red hill. First they champ, Then they stamp, Then they stand still" (Teeth) (Qizil tepalikda o'ttizta oq ot, avval chaynaydi, keyin tepadi, so'ng to'xtaydi — Tishlar).

Quyidagi topishmoqda esa inson ko'zlari "ikki ot"ga qiyoslanadi:

"Two horses, swiftest travelling, Harnessed in pair, And grazing ever in places, Distant from them" (Eyes) (Ikki ot, eng chaqqon yuruvchi, Bir juft bo'lib qo'shilgan, O'tlashadi doimo joylarda, O'zlaridan yiroq joylarda — Ko'zlar).

Qush, bola hayvonlari kabi kichik jonivorlar esa kichik **obyektlarni** kodlashda ishlatiladi:

"A white dove flew down by the castle. Along came a king and picked it up handleless, ate it up toothless, And carried away wingless" (Snow melted by the sun) (Oq kaptar qal'a yoniga qo'ndi. Podsho keldi-da, qo'lsiz oldi, Tishsiz yedi, Qanotsiz olib ketdi — Quyoshda erigan qor).

Ba'zi topishmoqlarda kodlovchi qismida mifologik hayvonlar va mavjudotlarning obrazlaridan foydalaniladi. Bu holatda esa irreal xarakterdagi bitta ko'zli, uzun dumli ajdar timsoli qo'llanilgan. U go'zal kiyimlardan kirib-chiqib, ko'plab mohir tikuvchilarni ko'rgan:

"A one-eyed dragon with a long tail. It has been in and out of many beautiful clothes, And seen many good tailors" (Needle and thread) (Bir ko'zli ajdar uzun dum bilan, Ko'p chiroyli kiyimlardan kirib-chiqqan, Ko'p mohir tikuvchilarni ko'rgan — Igna va ip).

Ingliz topishmoqlarida fitometafora nisbatan kamroq uchraydi. Biroq turli sabzavotlar, mevalar va o'simliklarga oid topishmoqlar son jihatidan anchagina. Bizning nazarimizda, bu hodisa topishmoqlarda kundalik hayotni poetizatsiya qilish qonuni amal qilishiga bog'liq. Ya'ni, topishmoqlarning aksariyatida tasvirlangan oddiy maishiy predmetlar yanada poetik, chiroyli va jonli narsalarga o'xshatiladi:

"My father have ten trees in his yard and two taller than the rest" (Fingers) (Mening otamning hovlisida o'nta daraxti bor, ulardan ikkitasi boshqalaridan balandroq — Barmoqlar).

Ayrim hollarda esa teskari hodisaga ham duch kelamiz, ya'ni odatda jonli mavjudotlar yoki jiddiy tushunchalar oddiy, hatto ba'zan ataylab pasaytirilgan predmetlar bilan almashtiriladi. Masalan:

"There's a tree in the valley, Fifty-two branches round. Each one bears seven, Which the Lord sent from Heaven" (A Year) (Vodiyda bitta daraxt bor, uning atrofida ellik ikki shox. Har birida yettidan mevasi bor, ularni Tangri osmondan yuborgan — Yil).

Turli xil tabiat metaforalarini o'z ichiga olgan ingliz topishmoqlari ham bor. Masalan:

"In this world it's a mountain, and upon this mountain it's a grass piece" (A man's head) (Bu dunyoda u tog', va bu tog' ustida bir bo'lak o't o'sadi — Odamning boshi).

Qoraqalpoqlarda tabiatga oid metaforalarning bu guruhiga **zoometafora**, **fitometafora** va tabiiy hodisalar metaforalari kiradi. Ushbu guruhda eng ko'p uchraydiganlar — **zoometaforalar**.

Zoometaforalarda yirik uy hayvonlari — buqa, ot, tuya, eshak kabilar tabiat hodisalari, tana a'zolari yoki yirik o'lchamli narsalar orqali kodlanadi:

"Qara ogizdi qizil ogiz jalaydi" (Qazan, ot)

"Qotir tuye kúlge awnaydi" (Kómesh, gúlsh)

Qoyan qulaql, At tuyaql (Eshek)

Qoraqalpoqlarning mayda jonliq — qo'y va echkilarni qadimdan boqib kelgani sababli bu hayvonlar obrazlarining topishmoqlarda keng qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz:

Mín qoydi bir shıbıq penen aydadım (Shash, páki)

Teke múyız, balıq kóz, Kerek jerde jalın qusadı (Mıltıq)

Bu yerda giperbolik metafora ishlatiladi: qurolning kuchi va xavfini kuchaytirib ko'rsatish uchun "olov qusish" obrazi qo'llanadi. Demak, inson qurolni o'z dunyoqarashidagi tabiiy va jonli obrazlar orqali konseptuallashtirgan.

It qadimiy turkiy dunyoqarashda ikki qirrali obrazga ega — bir tomondan, "sodiq qo'riqchi", ikkinchi tomondan, "iflos" hayvon sifatida qaraladi. Topishmoqlarda ko'proq uning foydali — qo'riqllovchi vazifasi metafora sifatida ishlatiladi. "Iyt" obrazida yaratilgan topishmoqlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi:

Bir iytım bar qabağan, Alqımına kiyiz jamağan (Qaqpan)

Attan biyik, iytten alasa (Er)

Tań qalarlıq bir iyt bar, Úy bağadı, úrmeydi, Ayağı joq, júrmeydi, Kómeshine tıqsań, sóyleydi. Adamnıń tilin bilmeydi, Xabarlaspay ol iytke, Heshkim úyge kirmeydi (Qulıp)

Qulf jonli bo'lmagan narsa, lekin xalq uni itga qiyoslagan, chunki ikkisi ham uyni qo'riqlash vazifasini bajaradi.

Bunda metaforik parallelizm mavjud: it — tirik qo'riqchi, qulf — jonsiz qo'riqchi. Biroq ba'zi topishmoqlarda metafora topilayotgan **obyekt**ni giperbolalash orqali uni yanada muhimroq qilib ko'rsatadi. Masalan, oddiy bir hasharot bo'lgan qo'ng'iz haqidagi topishmoqda uning it, tulki va qush bilan yaqinlik belgilariga urg'u beriladi:

Iyis biler, iyt emes, In qazadi, tülki emes, Qanati bar, qus emes (Qo'ni);

Ifoda uslubiga ko'ra, bu metaforik topishmoq — inkor shaklidagi (salbiy) topishmoqdir. Ijobiy (musbat) topishmoqlarda esa yashirin va ochiq ifodalangan mohiyatlar faqat ayrim belgilar va sifatlar orqali o'xshatiladi, umumiy ma'noda esa ular birlashtiriladi. Salbiy topishmoqlarda esa, aksincha, topilayotgan **obyekt** va uning metaforik ekvivalenti ayrim belgilar orqali yaqinlashtiriladi, biroq umumiy ma'noda ular qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan:

Mamiq tükli, qoyan emes, Oni tek haywanlar jemes, Dámi palday mazali, Adamzat jemeymen demes (Shabdal);

Bu yerda metaforaning ikki darajasi mavjud: tashqi belgilar (yumshoqlik) orqali quyon bilan yaqinlashtirish va funksional metafora (taom sifatida iste'mol qilinishi) orqali odamlar bilan bog'lash.

Soysañ qanı joq, Shójesiniñ sanı joq (Qawın);

Qarayıp qonar, ğarğa emes, In qazar, azıwlı ań emes (Qo'ni);

Salbiy shakldagi topishmoqlar xalq poetik tafakkurining eng sermahsul janrlaridan biridir. Ular orqali majoz, qarama-qarshilik va giperbolizatsiyaning uyg'unlashuvi kuzatiladi. Inkor shakli topishmoqni murakkablashtirib, badiiy obrazga dramatik ohang bag'ishlaydi.

Kichik uy hayvonlari, ularning bolalari va qushlar nomlari ko'pincha kichik o'lchamdagi, ammo ko'plab uchraydigan **obyektlar** va narsalarni shifrlash uchun ishlatiladi:

Bir máyekten otız shóje shıǵadı (Tis);

Aq kúshigim arbadan sekirip tústi (Túkirik);

Yovvoyi hayvonlar nomlari almashtiruvchi **obyekt** sifatida kamdan-kam hollarda uchraydi:

Arıslan ğewdeli, beli názik, Qoyıptı tıyanaqqa túbin jazıp, Ishinde temir tordıń tútigi bar, Tútiktiń sırtında shiyshe minar (Shıra);

Qarańǵı úyde jolbarıs gúrkireydi (Digirman).

Ushbu ikki topishmoqdan ko'rinadiki, yovvoyi hayvonlar (arslon, yo'lbars) ham ko'proq uy-ro'zg'or buyumlari tasvirida metaforik vosita sifatida ishlatilgan. Chunki xalq ongida bu hayvonlar kuch, salobat va qo'rqinchli ovoz timsoli sifatida mustahkam joylashgan. Shu asosda ular odam hayotidagi oddiy narsalarni ham ta'sirchan, obrazli shaklda ifodalash uchun qo'llanilgan. Bunda insonning kognitiv tajribasi asosiy rol o'ynaydi: oddiy predmetni hayvon obraziga ko'chirish orqali xalq uni estetik, obrazli va esda qolarli shaklda tasvirlaydi.

Tabiiy metaforalari mavjud bo'lgan topishmoqlar unchalik ko'p emas. Bunday topishmoqlarning eng ko'pi inson tanasining turli qismlari, ayniqsa yuz qismiga oid bo'ladi. Bosh ko'pincha tog'ga, ko'zlar ko'llarga, olmoslarga; burun buloqqa; og'iz chuqur yoki muzlagan suvga; peshona qoyaga; sochlar esa daraxtzorga yoki qalin o'tli dalaga qiyos qilinadi:

Qara tawım qarlı boldı, Bir jawsa ketpeytuǵın zerli boldı (Bas, shashtıń aǵarıwı);

Qıyılǵan qamıs astında, Aq-qara kól (Qas, kóz);

Háwız ústinde eki bulaq, Bulaq ústinde eki shıraq (Awız, murın, kóz).

Fitometafora topishmoqlarda boshqa konseptual metaforalarga qaraganda nisbatan kam uchralishi kuzatiladi. Bu, bir tomondan, sabzavot, meva va o'simliklarga oid topishmoqlar ko'pligiga qaramay, ular ko'proq denotativ (bevosita) tavsiflash vazifasini bajarishi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, bu hodisa xalq topishmoqlarining asosiy poetik qonunlaridan biri — kundalik hayot hodisalarini poetizatsiya qilish tendensiyasi bilan izohlanadi. Oddiy, ko'zga o'rganilgan jarayon va predmetlar ramziy va badiiy shaklda qayta talqin qilinib, ularning ortidan go'zallik, noziklik va hayotiy donolik ko'rinib turadi. Masalan:

Ekkenim bir tanapqa jalǵız biyday, Suw ishpese, turar kámalǵa kelmey, Bir kúni suwǵa miyri qanıp alsa, Turadı qanasına hesh bir siymay, Oylasaq, bul biyday emes, ol amanat, Otrarsañ, iyesi kelse, kóziń qıymay (Qız balanıń erjetiwi).

Shuni ham aytish kerakki, ba'zan qarama-qarshi tendensiya ham uchraydi: muhim tushunchalar oddiy, hatto ataylab past darajadagi narsalar bilan almashtiriladi:

Bir terekte on eke putası bar, Hár putada otız japıraǵı bar, Bir japıraǵında bardur eki júz, Bir júzinde qara bardur, Bir júzinde aǵı bardur (Jıl, ay, kún).

Xulosa. Qiyosiy tahlil natijasida ingliz topishmoqlarida metaforik modellar ko'proq individual obrazlar va poetik tasvirlar asosida shakllanishi, qoraqalpoq topishmoqlarida esa chorvachilik, tabiat va an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq etnomadaniy tajriba ustuvorligi kuzatildi. Har ikki xalq topishmoqlarida zoometaforalar yetakchi o'rinni egallab, hayvon obrazlari orqali predmetlar, inson a'zolari va turli hodisalar konseptualashtirilishi aniqlandi. Fitometaforalar hamda tabiiy **obyektlarga** asoslangan metaforalar esa voqelikni poetik va obrazli talqin qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har ikki tilda tabiat obrazlari inson tafakkurining universal konseptual mexanizmlariga tayangan holda shakllanishi aniqlandi. Bu esa topishmoqlarning xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va konseptual bilimlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy manba ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Айымбетов Н. Қ. (ред.). *Қарақалпақ фольклоры*. – Нөкис: Илим, 2015. – Б. 88–100. – 544 б.

2. Алымов Ә. *Қарақалпақ халық жумбақлары*. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1996. – 58 б.

3. Волоцкая З. М. Способы номинации в загадках (к вопросу о произвольности языкового знака) // *Структура текста*–81. – М.: Наука, 1981. – С. 96–99.

4. Леонтьев А. А. *Основы психолингвистики*. – М.: Смысл; Академия, 2007. – 269 с.

5. Мечковская Н. Б. *Язык и религия. Лекции по филологии, истории религий*. – М.: ГРАНД, 1998. – 352 с.